



TURKCHAGA ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN JURNALISTIKAGA OID TERMINLAR XUSUSIDA

Xayrulla Hamidov

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti prof. v.b., Filol.f.d., dotsent

Arzu Karausta

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti kurs magistranti

Annotatsiya. Hozirgi turk adabiy tilining shakllanishi tarixiga nazar tashlanganda, tilga tashqaridan ta'sir, asosan, XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrda kuzatilgan. Bu davrgacha juda ko'p sinovlar, turli islohotlarni o'z boshidan kechirgan turk tili Turkiya Respublikasi tashkil etilgandan keyin jamiyatda amalga oshirilgan qator jiddiy islohotlar orasida muhim o'rin olgan «Til inqilobi» (Dil Devrimi) natijasida yangi davrga qadam qo'ygan. Ushbu maqolada turkchaga arab tilidan o'zlashgan jurnalistikaga oid terminlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Til inqilobi, o'zlashmalar, purism, jurnalistika, so'z boyligi.

Аннотация. Если посмотреть на историю формирования нынешнего турецкого литературного языка, то влияние извне на язык преимущественно наблюдалось в период до 20-х годов XX века. До сих пор турецкий язык, переживший множество испытаний и различных реформ, вступил в новую эпоху в результате «Языковой революции», занявшей важное место среди многих серьезных реформ, осуществленных в турецком обществе после создания Турецкой Республики. В данной статье речь идет о журналистских терминах, заимствованных с арабского на турецкий язык.

Ключевые слова и выражения: Языковая революция, заимствование, пуризм, журналистика, словарный запас.

Annotation. If you look at the history of the formation of the current Turkish literary language, then external influence on the language was mainly observed in the period before the 20s of the twentieth century. Until now, the Turkish language, having gone through many trials and various reforms, entered a new era as a result of the "Language Revolution", which occupied an important place among the many major reforms carried out in Turkish society after the establishment of the Turkish Republic. This article deals with journalistic terms borrowed from Arabic into Turkish.

Key words and expressions: Language revolution, borrowing, purism, journalism, vocabulary.

Turkiya Respublikasida o'tgan asrning 30-yillarida amalga oshirilgan qator jiddiy islohotlar orasida muhim o'rin olgan «Til inqilobi» (Dil Devrimi) ning asosiy maqsadi turk tilining lug'at zahirasi, uning funksional (vazifadosh) uslublarini qayta tiklash, grammatik va uslubiy me'yorlari, imlo qoidalarini tartibga solishdan iborat edi. U davrda Turkiyadagi yangi ijtimoiy munosabatlar adabiy tilning elitar mazmuniga barham berish, yozuv me'yorlarini demokratlashtirish va ularni xalq og'zaki nutqiga





yaqinlashtirishni taqozo etar edi. Tilni isloh qilish tadbirlaridan eng muhimlari usmoniy turkchasi (*Osmanlı Türkçesi*) ning turk tili (*Türkçe*) deb o'zgartirilishi va arab yozuvidan lotin alfavitiga asoslangan, turk tilining tovush tarkibiga to'la mos keluvchi yangi turk yozuviga o'tilishi, shuningdek, 1929-yildan boshlab turk maktablarida arab va fors tili darslarining bekor qilinishi edi.

Til islohatining asosiy ilmiy va tashkiliy markazi bo'lgan Turk til tashkiloti (*Türk Dil Kurumu*) tomonidan olib borilgan til islohotining maqsadi turk tili leksikasining ajnabiy unsurlar, birinchi navbatda, arabcha va forscha so'zlardan tozalab, yangi turk leksikasi va atamashunosligini barpo qilishdan iborat bo'lgan (Respublik tashkil topishi bilan Turkiyaning birinchi prezidenti Mustafó Kamol Otaturkning tashabbusi bilan tashkil etilgan Turk tili jamiyati (*Türk Dil Kurumu*) ajnabiy so'zlarni sof turkiy so'zlar bilan almashtirish orqali yuzlab arabcha-forscha so'zlar o'rniga turli manbalardan yangi so'zlar kirib kelishiga sabab bo'ldi). Yangi turk leksikasi, bir tomondan, yozuvda keng qo'llanib kelayotgan arxaizmlarning o'rnini egallashi, ikkinchi tomondan, yangi tushunchalarni ifodalash uchun vosita bo'lishi va bu bilan turk tilining taraqqiy etgan zamonaviy dunyo tillari qatoridan o'z o'rnini egallashini ta'minlashi kerak edi. Shu tarzda til jamiyatlari, keng jamoatchilik, yozuvchi, jurnalist va pedagoglar ushbu islohotlarga jalb etilib, turk tili leksikasi va atamashunosligini qayta yaratish, tilni begona unsurlardan tozalash (*özleşme*, ya'ni o'zining asl holiga qaytish) yo'li bilan umummilliy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqishga kirishildi. Bunda turk tili va qardosh turkiy tillarning ichki zahiralaridan keng ko'lamda foydalanildi. Turk tili, uning leksikasi, grammatikasi va uslubshunosligini qayta qurish borasida olib borilgan tadbirlar natijasida Turkiya Respublikasining ilk yillarida boshlangan til inqilobi oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlarga erishildi: turk adabiy tili va og'zaki nutq me'yorlari orasida mavjud bo'lgan jiddiy farqlarga barham berildi. Sof turk leksikasi tubdan boyitildi, tilning ijtimoiy vazifasi yanada kengaydi. Shunga qaramay, o'sha davrda eskirib qolgan (arxaik) deb hisoblangan arab va fors leksikadan tamoman voz kechilmadi. Ular hozirgi zamon turk tilida ham sof turkiy so'zlarning uslubiy muqobillari sifatida qo'llanib kelinadi.

Hozirgi turk tilida ham jiddiy miqdorda saqlanib qolgan arabcha leksik o'zlashmalar, asosan, diniy atamalar, ijtimoiy tushunchalar ilmiy va maxsus atamashunoslikka oiddir. Badiiy adabiyot, xususan poeziya (Devon adabiyoti) orqali ham turk tiliga ko'plab arabcha va forscha so'zlar o'zlashgan. Ko'pchilik arabcha





soʻzlar esa fors tili vositasida kirib kelgan va turk tilining turli vazifadosh uslublariga sizib oʻtib ularning salmoqli qismi hozirgi turk tilida saqlanib qolgan.

Shuni ham taʼkidlash joizki, xorijiy tillarning turk tiliga taʼsirini bir qator omillarda, xususan, turk tili fonetik qoidalariga amal qilinmaslik yoki mavjud qoidalarning buzilgan holda qoʻllanilishida yaqqol kuzatish mumkin. Bu, asosan, soʻzlarning talaffuz qilinayotganda turkiy singarmonizm qonuniga boʻysunmasligi, turkchaga xos boʻlmagan unli va undosh tovushlar ketma-ketligi va shunga oʻxshash tovush (fonetik) hodisalardir. Morfologik nuqtai nazardan, arab va fors tillarining jiddiy taʼsiri turkchaga yot boʻlgan baʼzi grammatik kategoriyalar (bogʻlovchilar, old qoʻshimcha, feʼl-masdar, sifatdoshtlar) ning oʻzlashganligida namoyon boʻlgan.

Bugungi kunga kelib hozirgi zamon turk adabiy tili toʻla shakllandi va hozirda turk tilining uslubiy va atamashunoslik tizimlari meʼyorlashtirildi, deyish mumkin. Lekin shuncha samarali ishlar olib borilayotganiga qaramay, tilning baʼzi vazifadosh (funktional) uslublarida, ayniqsa professional uslublarda – tibbiyot, huquq, harbiy va boshqa sohalarida hozirgi zamon turk tiliga xos soʻz va atamalar bilan parallel shaklda koʻp arxaik arabcha-forscha soʻz va terminlarning ham qoʻllanilayotgani maʼlum. Yuqorida sanab oʻtilganlarning hisobga olinishi hozirgi turk tili leksikasi, xususan, oʻzlashgan soʻz va atamalarni oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon turk tili, uning lugʻat tarkibi oʻta murakkab tarixiy va ijtimoiy lingvistik jarayonning mahsuli boʻlib, bu jarayonda til taraqqiyoti jamiyatning ongli ishtiroki va hozirgi bosqichda faol soʻz yasalishi jarayoni bilan uygʻunlashib ketgan.

Maʼlumki, har til oʻzining asosiy soʻz boyligiga ega. Vaqt oʻtishi bilan bu boylik yangi soʻzlarning yasalishi va boshqa tillardan soʻzlar kirib kelishi yoʻli bilan yanada boyiydi. Til tirik organizm, u vaqt taqozosi bilan oʻz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, taʼkidlanganidek, soʻz yasalishi, hamda soʻz oʻzlashtirish yoʻli bilan oʻz zahirasini boyitib borar ekan, boshqa tomondan baʼzi soʻzlar eskirib, isteʼmoldan chiqib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, soʻz boyligi bir tomondan, ortib boruvchi, ikkinchi tomondan esa yangilanib boruvchi maʼnaviy xazina hisoblanadi.

Yuqorida ham taʼkidlangani kabi, turklar boshqalardan ancha keyin, forslar bilan yaqin aloqada boʻlgan holda musulmonlikni qabul qilgan va keyinchalik Eronda oʻz davlatlarini barpo qilgan. Shu bois islom dini, musulmonchilikka oid ilk tushunchalardan koʻpchiligi forscha soʻzlar orqali oʻrganilgan. Bunday soʻzlardan baʼzilari turk tilida hozirgacha saqlanib qolgan. Keyinchalik din tili sifatida





arabchanning ta'siri ortib borgan. Koshg'ariy "Divan-u Lügati't-Turk" asarida turk tilini arab tiliga qiyoslab, uning qoloq til emasligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Ammo turkiy so'zlar bilan adabiy go'zallikka erishib bo'lmaydi, deb hisoblanganligi sababli, fors va arab so'zlari, bu tillarning aruz, mazmun kabi adabiy xususiyatlari qo'llanila boshlangan. Xonlar, vazirlar, sultonlar ham bu tillarni afzal ko'rganlar.

XX asrning 50-60-yillarida har sohada bo'lgani kabi, til sohasida amalga oshirilgan jiddiy o'zgartirishlar *Özleştirme hareketi*, ya'ni so'zlarni turkchallashtirish jarayoni deyiladi. Albatta, bu davrda, asosan, turkchadagi arabcha va forscha unsurlar qayta ko'rib chiqila boshlandi. Shunda Yevropa tillaridan kirib kelgan unsurlarga unchalik to'sqinlik qilinmadi, chunki ularning ko'pchiligi yozma va og'zaki nutqda yaxshi joylashib olgan va sof turk tilida muqobili topilmagan unsurlar edi. Lekin, ba'zi turkolog olimlar yevropa tillaridan o'zlashgan so'z va atamalar xususida qizgin bahslarni davom ettirishgan, ko'plab inglizcha, yunoncha, italyanacha so'zlarni iste'moldan chiqarib tashlash va o'rniga turkiy so'zlar qo'yishga uringanlar. Lekin, yuqorida ham ta'kidlangani kabi, ular tanlagan turkiy muqobillar tildan o'z joyini topa olmagan. Shunday bir davrda uzoq vaqt qo'llanib kelingan arabcha atamalar yevropacha shakllar bilan almashtirishga harakat qilingan [1,156]. Masalan, *iktisat* so'zi yevropacha *ekonomi* so'zi bilan, arabcha *siyaset* so'zi yevropacha *politika* so'zi bilan almashtirilgan, lekin baribir, nutqda ularning har ikkala shakli ham saqlanib qolgan. Ularning turkcha mudqobillari topilmagan.

Turk Til Jamiyati tomonidan 2023-yilda chop etilgan turkcha lug'at (Türkçe Sözlük)da 2023-yil holatiga ko'ra, so'z, atama, idioma, qo'shimcha va ma'nolardan iborat 122.423 so'z bo'lsa, shundan 6463 tasi arabcha ekan. Agar bu tillar nisbatida olinsa, arabcha so'zlar eng ko'p miqdorni tashkil etar ekan [2].

Arabcha so'zlarning turkiy tilda qanday o'zgarishlarga uchraganligi, olgan yangi shakllari, turkiy so'zlar va boshqa tillardan olingan so'zlar bilan hosil qilgan murakkab shakllar; so'zlarning turkchaga tarjima qilinishi va boshqa muhim ma'lumotlar, misollar keltirilgan. Ana shu tarixiy jarayonda tilga kirib kelgan arabcha unsurlarning bir qismi publitsistika va jurnalistika sohalariga tegishli atamalar hisoblanadi. Bunday so'zlarni to'rtga bo'lib ko'rib chiqish mumkin: oddiy shakldagi arabcha terminlar, turkcha qo'shimchalar qo'shib yasalgan arabcha terminlar, turkiy so'zlar bilan qo'shib hosil bo'lgan arabcha va boshqa tillarga xos qo'shimchalar yoki so'zlar bilan qo'shib yangi ma'no kasb etuvchi terminlar.





1. Oddiy (tub so‘z) shakldagi arabcha terminlar: *Haber* (*xabar, axborot*), *havadis* (*xabar*), *malumat* (*ma'lumot, axborot*), *ilan* (*e'lon*), *matbaa* (*matbaa*), *matbuat* (*matbuot*), *muhabir* (*muxbir*), *nüşha* (*nusxa*), *teşhir* (*tashhir*), *kayıt* (*qayd*), *mülakat* (*muloqot*), *mektup* (*maktub*), *ihbar* (*xabar, chaquv*), *üslup* (*uslub*) va h.k.

2. Turkcha qo‘shimchalar qo‘shib yasalgan arabcha terminlar: *Haberci* (*xabar beruvchi*), *habercilik* (*xabar berish ishi, xizmati, axborot xizmati*), *muhabirlik* (*muxbirlik*), *ilancilik* (*e'lon berish ishi*), *haberleşme* (*xabar olish, berish; muloqot*), *matbaaci* (*matbaachi, poligraf, noshir*), *matbaacilik* (*matbaa ishi, poligrafiya, nashriyot*) va h.k.

3. Turkiy so‘zlar bilan qo‘shilib hosil bo‘lgan arabcha terminlar: *Haber* *yapmak* (*axborot bermoq, xabar qilmoq*), *haber kaynağı* (*axborot manbai*), *haber atlatmak* (*axborotni o‘tkazib yubormoq*), *yalan haber* (*yolg‘on xabar*), *haber sunucusu* (*axborot dasturini olib boruvchi suxandon*), *kayıt etmek* (*qayd qilmoq*), *basın dünyası* (*matbuot dunyosi*), *basın kanunu* (*matbuot nizomi*), *basın şeref kartı* (*akkreditatsiya karti*), *basın tarihi* (*nashr sanasi*), *yayın tarihi* (*efirga uzatish sanasi*), *basın yoluyla hakaret* (*matbuot orqali haqorat qilish*), *açık metin* (*ochiq matn*), *kapalı metin* (*yopiq matn*), *haber alışverişi* (*xabar almashinuvi*), *haber toplama* (*axborot to‘plash*), *basın ahlakı* (*matbuot axloqi, etikasi*), *araştırma haberi* (*jurnalist surishtiruvi xabari*), *naklen yayın* (*jonli efir, jonli yoyin*) va h.k.

4. Boshqa tillarga xos qo‘shimchalar yoki so‘zlar bilan qo‘shilib yangi ma’no kasb etuvchi terminlar:

- *Haber ajansı, haber bürosu, haber bülteni, haber stüdyosu, ilancılık ajansı, milli ajans, haber arşivi, haber anonsu, haber kupürü* (Arabcha+Fransuzcha);
- *haber portalı* (Arapça+İngilizce)
- *balon haber, aktif resim, manşet haber, sansasyon haber, dijital habercilik, flaş haber, objektif haber, magazin haberciliği* (Fransızca+ Arapça);
- *beyaz propaganda* (Arapça+İtalyanca),
- *gazetecilik üslubu* (İtalyanca+ Arapça).

Turk tiliga arab tilidan kirib kelgan yuqoridagi so‘zlarning ba’zilari arab va fors tillarida hamon bir xil ma’noda qo‘llanilsa, ba’zilari vaqt o‘tishi bilan turli ma’nolar kasb eta boshlagan. Masalan, *mülakat* so‘zi uch tilda “uchrashuv, muloqot, suhbat” ma’nolarini bildirsa, o‘zbek tilida faqat bitta “muloqot” ma’nosini bildiradi [3].





Turk tiliga fors tili orqali kirib kelgan **tefrika** soʻzi arab va fors tillarida “ajratish, taqsimlash, boʻlish” maʼnolarida qoʻllanilsa, turk tilida “gazeta va jurnallarda chop etilgan bir-birini toʻldiruvchi maqolalar turkumi” maʼnosini bildiradi. **Havadis** soʻzi uch tilda ham “hodisalar, holatlar” maʼnosini bildirsa, turk tilida “qiziqarli boʻlishi mumkin boʻlgan xabar” maʼnosida ham qoʻllaniladi [5].

Yuqorida keltirilgan misollardan arab tilidagi “xabar” soʻzi va undan avval arab tilining oʻz ichida yasalib songra turkiy tillarga oʻzlashgan soʻz va terminlar asosida jurnalistikaga oid onlab sodda va murakkab terminlar yaratilganiga guvoh boʻlindi.

Xulosa. Ushbu maqolani tayyorlash chogʻida arab tillarining turkiy tillariga qanchalik kaʼsir koʻrsatgani, xususan, turkcha siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va geografik terminlarning shakllanishiga qisman asos boʻlganligi kuzatildi. Shu bilan birga turkiy tillar arabcha unsurlar asosida qanchalik boyiganiga ham ishonch hosil qilindi. Bu esa tilning tirik mavjudot ekanligini yana bir bor namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uygulamalı Türkçe Bilgileri, 2.Cilt, Ankara. – 1995. – S.156-158.
2. Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, – 12. Baskı, 2023, Genel Ağ Sunumu-
3. Dursunoğlu Halit. Türkiye Türkçesi'ndeki Arapça Sözcükler ve Bu Sözcüklerdeki Ses Olayları. Atatürk Kültür Dil ve Tarih Yüksek Kurumu. 2. Erol Mutlu. İletişim Sözlüğü. – 2016.
4. Medya ve İletişim Sözlüğü, Daniel Chandler-Rod Munday, 2018.

